



TABIAT IN'OM ETGAN G'AROYIB OROLLAR VA ULARDAGI NOYOB TABIAT MO'JIZALARI

Ashurov Jumanazar Saidkulovich

Termiz davlat pedagogika instituti Texnologiya va geografiya kafedrası
o'qituvchisi E-mail. ashurovjumanazar14@gmail.com +998912352234

Annatatsiya: Mazkur maqolada dunyoning noyob tabiiy go'shalaridan biri bo'lgan Sheyshal orollari va Galapagos orollarining geografik joylashuvi, tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi hamda ekologik ahamiyati yoritilgan. Sheyshal orollari Hind okeanida joylashgan bo'lib, tropik iqlimi va korall riflari bilan mashhur. Galapagos orollari esa Tinch okeanida, Ekvador davlati hududida joylashib, ko'plab endemik turlar— xususan, toshbaqalari bilan tanilgan. Ushbu maqola tabiatni asrash va noyob ekotizimlarni o'rganish istagidagi o'quvchilar uchun foydali ma'lumotlar manbaidir.

Kalit so'zlar: ekotizim, endemik turlar, biologik xilma-xillik, turizm, tropik iqlim, ziravor plantatsiyalar, korall riflari, Koko-de-mer, Mae, Praslin, La Digue.

Аннотация: В этой статье рассказывается о географическом положении, природе, фауне и флоре Галапагосских островов и Галапагосских островов, а также об их экологическом значении как одного из редких природных видов мяса в мире. Шейшалские острова расположены в Индийском океане и известны своим тропическим климатом и коралловыми рифами. Галапагосские острова, с другой стороны, расположены в Тихом океане, на территории государства Эквадор, известного своими многочисленными эндемичными видами, особенно черепахами. Эта статья является полезным источником информации для читателей, которые хотят сохранить природу и изучить уникальные экосистемы.

Ключевые слова: экосистема, эндемичные виды, биоразнообразие, туризм, тропический климат, специи плантации, коралловые рифы, коко-де-мер, Мэй, Праслин, Ла-Диг.

Annatation: This article covers the geographical location, nature, fauna and flora and ecological significance of the Sheishal Islands and Galapagos Islands, one of the unique natural meats of the world. The sheishal islands are located in the Indian Ocean and are known for their tropical climate and coral reefs. The Galápagos Islands, on the other hand, are located in the Pacific Ocean, in the territory of the Ecuadorian state, and are known for many endemic species— in particular, turtles. This article is a useful source of information for readers who want to preserve nature and explore unique ecosystems.

Keywords: ecosystem, endemic species, biodiversity, tourism, tropical climate, spice plantations, coral reefs, Koko-de-mer, Mae, Praslin, La Digue.

“Hamma yoqdan ming milya” degan shior XVIII asrdan buyon Seyshel orollari gerbini bezab turadi. Bu ibora mubolag'a emas. Hind okeanining o'rtasida joylashgan



Seyshel orollari tashqi dunyodan ajralgan, odamlarning qadami yetishi qiyin bo'lgan joylardan biri bo'lgan. Bu orollar 1506 yilda portugallar tomonidan kashf etilgan vaqtda u yerlarda inson yashamagan. 1743 yil yilda bu orollarni fransuzlar bosib olgan. Seyshel orollari poytaxtidagi muzeyda bir eksponat – antiqa tosh bor. Bu tosh Fransiyadan keltirilgan bo'lib, unga Mae orolining va yana boshqa 70 orolning Fransiya qiroliga qarashli ekanligi, ularning hammasi 1756 yil 1 noyabrdan boshlab qirolyudovik XV ning moliya ministri Morode Seyshel sharafiga uning nomi bilan "Seyshel orollari" deb yuritilajagi yozilgan. Hind okeanidagi Seyshel orollarining nomi shu tariqa vujudga kelgan.

1974 yilda mazkur orollarni inglizlar bosib olgan. 1814 yilda orollar Angliyaning mustamlakasiga aylantirilgan. Seyshel poytaxtining markaziy chorrahasida ikki metrlik tosh taglikga Angliya qirolichasi Viktoriyaning oq haykali o'rnatilgan. 1903 yildan Seyshel orollarining poytaxti Viktoriya nomi bilan yuritila boshlangan.

Seyshel orollari yuzdan ortiq qoyali va marjon orollardan tashkil topgan. Orollar fransuzlar mustamlakasi bo'lgan vaqtlarda bu yerlarda qalampirmunchiq, dolchin va vanillin kabi ziravor plantatsiyalarida ishlatish uchun ko'plab qullar keltirilgan. Seyshel inglizlar tasarrufiga o'tgach, bu yerlarga arab savdogarlari, xitoy hunarmandlari kela boshlagan. Seyshelda yashovchi metiz nufuzda fransuz tili va urf odatlari hamon hukmron.

"Hamma yoqdan ming milya" olisdagi orollar uzoq vaqtlargacha materiklardan ajralgan holda rivojlanganligi uchun nabotot va hayvonot dunyosi o'ziga xosdir; bu yerdagi o'simlik va hayvonlarning ko'pchiligi sayyoramizning boshqa o'lkalarida mutlaqo uchramaydi.

Seyshel orollarida tropik o'lka o'simliklari, xususan palmaning 20 dan ortiq navi mavjud. Shuning uchun Seyshel orollarini bir vaqtlar "palmalar oroli" deb ham atashgan.

Norjil – seyshalliklarning "hayot daraxti" dir. Norjil yerli xalqqa yog' va sharbat, yong'oq va tola, yoqilg'i va qurilish materiali beradi. Norjil yong'og'ining mag'zi – kopra Seyshalning chetga chiqaradigan asosiy mahsuloti hisoblanadi.

Seyshel orollari o'simliklarining eng noyobi – ulkan norjil yong'og'idir. Bu yong'oq "Koko-de-mer" (yelpig'ichsimon) deb ataladi. "Koko-de-mer" faqat Praslen orolidagina o'sadi. Koko-de-merning yong'og'i dunyoda eng katta mevalardan hisoblanadi. Ulkan norjil palmasining mevasi qo'shaloq yong'oq bo'lib, o'g'irligi 20-25 kilogramm keladi, ayrim hollarda 40 kilogrammgacha yetishi mumkin. Yong'oqning ko'ndalang kesimi -35- 40 santimetr, uzunligi 50-55 santimetrga yetadi.

O'rta asrlarda bu yong'oq "sakkizinchi mo'jiza" deb yuritilgan. Hindlar "muqaddas yong'oq", "baxt-saodat ramzi", kishini yoshartirish, organizmni mustahkamlash, kuch quvvatni tiklash xususiyatiga ega meva deb bilganlar. Shunga ko'ra qadim zamonlarda Seyshel yong'og'ining bir donasini qimmatbaho buyumlarga, hatto bir kema molga almashgan, o'z davriga juda katta pulga sotib olgan kishilar ham bo'lgan. [1; 234]



Qadimgi adabiyotlarda yozilishicha Seyshel yong'og'ining yoshartirish, baxt-saodat keltirish xosiyati borligiga odamlar ishonganlar. Bu yong'oqni Odam Ota va Momo Havo jannatda go'yo mana shu yong'oqni tanavvul qilgan. Seyshel orollarini ba'zi manbalarda Jannat orollari ham deb atashgan. Seyshel orollari haqiqatdan ham dunyodagi eng so'lim, eng dilrabo go'shalardan biridir.

Seyshal palmasi daraxtining balandligi 25-30 metr, diametri 30-40 santimetr keladi. Yelpug'ichsimon barglarining uzunligi 3-4 metr, eni 3 metrdir.



Mazkur daraxt 25-30 yoshga yetganda hosilga kiradi. Mevasi yong'og'i 8-10 yilda pishib yetiladi. Mevasi ko'kimtir-zaytun rangda. Yong'oqning 3-4 tasi birga g'uj bo'lib yetishadi. Bir g'uj yong'oqning og'irligi 150 kilogrammga yetadi. Bu daraxt 100 yoshga yetganda balog'atga yetadi va 700-1000 yil yashaydi. Hozir seyshel palmalari qattiq muhofaza ostiga olingan. Uning har bir tupi 1000 funt sterlingdan ortiq baholanadi. Bu noyob mevalarning ishqibozlari oz emas. Hatto Seyshel yong'og'i sotiladigan yashirin bozorlar ham mavjud. Uning mag'zi hozirgi vaqtda ham qo'zg'atuvchi vosita sifatida iste'mol qilinadi, sayqal berilgan po'chog'i esa eng qimmatbaho va noyob esdalik sovg'alardan hisoblanadi.

Seyshal orollarining hayvonot olami ham antiqa: yer yuzidagi eng yirik ko'rshapalak shu orollarda yashaydi. Ulkan ko'rshapalakning daraxtlarga osilib yotishi, beso'naqay qanotlarini yozib shovqinsiz uchishi vahimali tuyuladi.

Dunyoning boshqa joylarida uchramaydigan juda nodir parranda – qora to'ti ham shu orollarda yashaydi. Seyshal orolida qushlar juda ko'p. Ularning 100 dan ortiq turlari faqat shu orollarda xosdir. Kuzen orolida qushlar ovozi bir daqiqa tinmaydi. Ular odamlardan hayiqmay, yelkaga bemalol kelib qo'nadilar. Mazkur orolga qadam ranjida qilgan kishining ko'zi "Bu - qushlar oroli. Orol egalarini bezovta qilmang" degan lavhaga tushadi. Kuzen oroli qo'riqxonaga aylantirilgan. Umuman Seyshal mamlakatining 2/3 qismi qo'riqlanadigan hudud hisoblanadi.

Seyshel orollarida Yer yuzidagi eng ulkan toshbaqalar yashaydi. Bu ulkan toshbaqaning vazni ba'zan 400 kilogrammga yetadi. Ularning soni 200 mingga yaqin. Ulkan yong'oq va ulkan toshbaqa Seyshal orollarining ramziga aylangan. Seyshal orollari davlat gerbida yelpug'ichsimon palma bargi fonidagi ulkan toshbaqaning tasviridan iborat.

Seyshel orollari — Hind okeanining g'arbiy qismida, Afrikaning sharqiy sohillariga yaqin joylashgan tropik orollar guruhidir. Bu orollar tabiiy go'zalligi, toza



plyajlari, noyob o'simlik va hayvonot dunyosi bilan mashhur. Seyshel Respublikasi nomi bilan tanilgan ushbu mamlakat 115 ta oroldan iborat.

Geografik joylashuvi. Seyshel orollari Afrika qit'asining shimoli-sharqida, Madagaskarning shimoliy qismiga yaqin hududda joylashgan. Poytaxti — Viktoriya shahri, u eng katta orol bo'lgan Mae orolida joylashgan. Seyshel orollarining eng katta uch oroli — Mae, Praslin va La Digue bo'lib, aholining aksariyati shu yerda yashaydi.

Tabiiy boyliklar. Seyshel orollari o'zining kristaldek tiniq suvlari, oq qumli plyajlari va tropik o'rmonlari bilan sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Bu yerda dunyoda faqat Seyshelda uchraydigan hayvonlar va o'simliklar mavjud. Masalan, Coco de Mer nomli yong'oq daraxti va Aldabra gigant toshbaqalari dunyoda juda kamyob bo'lib, Seyshel orollarida saqlanib qolgan.

Iqlimi. Seyshel orollarida butun yil davomida iliq tropik iqlim hukm suradi. Havo harorati odatda 24–30°C atrofida bo'ladi. Yil davomida yog'ingarchilik kuzatiladi, biroq eng yomg'irli davr dekabr-aprel oylariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyoti. Seyshel orollari iqtisodiyoti asosan turizm, baliqchilik va qishloq xo'jaligiga tayanadi. Ayniqsa, xalqaro turizm asosiy daromad manbalaridan biridir. Ko'plab xorijiy mehmonxonalar, dam olish maskanlari va sayyohlik xizmatlari mavjud.

Madaniyat va aholisi. Seyshel aholisi turli millatlardan tashkil topgan bo'lib, afrikaliklar, hindlar, yevropaliklar va xitoyliklarning aralashmasidan iborat. Rasmiy tillar — ingliz, fransuz va kreol tillari hisoblanadi. Seyshel madaniyati musiqa, raqs va bayramlarga boy bo'lib, mehmondo'stlik bu yerda juda yuqori qadrlanadi.

Hozir ulkan toshbaqalar asosan Galapagos orollarida yashaydi. Bu orollar 1535 yilda kashf etilgan. Tinch okeanning sharqiy qismida, Janubiy Amerika yaqinida ekvatorning xuddi o'zida joylashgan. Galapagos orollarida shunday toshbaqalar behisob ko'p. Shu boisdan orolga "galapagos", deb nom berilgan (galapaga- ispancha so'z bo'lib, "katta toshbaqa" degan ma'noni bildiradi).

Dastlabki davrlarda orollarda odamlar yashamagan, shu sababdan hayvonot dunyosining tinchligini hech buzilmagan. Keyinchalik orollarga dengiz sayyohlari kela boshlagan: ba'zi mamlakatlardan odamlar butunlay ko'chib kelganlar va orollardagi hayvonlarga ov qilaverganlar, natijada bu hayvonlarning ba'zi turlari yo'q bo'lib ketgan. Janubiy Amerikadagi Ekvador mamlakatidan ko'chib kelgan kishilarning orolga olib kelgan uy hayvonlari (echki, it, cho'chqalar) bu yerning hayvonot olamiga putur yetkazgan.

Yuqorida aytganimizdek Galapagos orollarining hayvonot olami o'ziga xos bo'lib, dunyodagi birorta mamlakatnimiga o'xshamaydi. Bu noyob hayvonlar 1957 yildagina muhofaza qilina boshlandi. Hozirgi vaqtda ulkan toshbaqalar ham muhofaza ostiga olingan va ko'paytirilmoqda. Bu toshbaqalar kosasining uzunligi bir yarim metr keladi: uning kosasi ustiga ko'rpacha yozib, bemalol chordana qurib o'tirish mumkin. Toshbaqalarning go'shti ovqatga iste'mol qilinadi va yog'i juda qadrlanadi. Mazkur toshbaqalar bir necha oylab yemay-ichmay yashay oladi. Toshbaqa ishqibozlarining ta'rificha, ular bamisoli "tirik konserva". Ularni kemalarga to'ldirib olib



ketilaverganligining boisi ham shu: keyingi 300 yil mobaynida 10 milliondan ortiq toshbaqa iste'mol qilingan. Orollardagi aholi toshbaqa yog'ini eritish bilan ham shug'ullanishgan. Toshbaqalar muhofaza qilinia boshlangandan keyin bunday ishlar barham topdi.

1897-1935 yillar mobaynida Tonga orollarida chiqarilgan pochta markalarida Galapagos orollarida yashaydigan ulkan toshbaqa tasvirlangan. Buning ta'rixi bor. Mashhur ingliz sayyohi Jeyms Kuk XVIII asrning 70- yillarida o'z safarlaridan birida kemaga chuchuk suv olish uchun Galapagos orollariga to'xtaydi. Shunda kemadagilar mazkur orolda yashaydigan ulkan toshbaqalardan 2-3 tasini ushlab olishadi. Jeyms Kuk kemasi Yangi Zelandiya tomon suzib, Tonga orollariga yetib borganda mahalliy xalq uni samimiy kutib olgan. Bundan ko'ngli to'lgan Kuk minnatdorchilik tariqasida tongaliklar yo'l boshchisiga bahaybat toshbaqalardan birini hadya qilgan. Toshbaqa unga juda ma'qul tushgan. Diqqatga sazovor bu toshbaqa keyinchalik Tonga pochta markasiga o'z aksini topgan. [1; 13].

Xulosa. Seyshel orollari dunyodagi eng go'zal va ekologik toza joylardan biri hisoblanadi. U yerga sayohat qilgan har bir kishi bu yerning betakror go'zalligi, osoyishta muhit va mehmondo'st odamlaridan hayratda qoladi. Tabiatni sevuvchilar va tinch dam olishni xohlovchilar uchun Seyshel orollari haqiqiy jannatdir. Galapagos orollari dunyodagi eng noyob va betakror hayvonot olamiga ega hududlardan biridir. Ayniqsa, bu yerda yashovchi ulkan toshbaqalar nafaqat orolga nom bergan, balki butun jahonda Galapagosni taniqli qilgan. Inson aralashuvidan oldin bu orollarda tabiiy muvozanat buzilmagan bo'lsa-da, keyinchalik sayyohlar va ko'chib kelgan aholining faoliyati tufayli ayrim hayvon turlari yo'qolib ketgan. Xususan, toshbaqalar go'shti va yog'i uchun ovlangan. Ammo XX asrning o'rtalaridan boshlab bu noyob jonivorlarni muhofaza qilish ishlari boshlanib, ularning sonini saqlab qolish va ko'paytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Galapagos toshbaqalari nafaqat biologik meros, balki insoniyat uchun tabiatni asrash zaruratining yorqin namunasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мўминов О. “Турфа олам” Тошкент “Ўзбекистон” 1982
2. P.Baratov A. Soatov “Umumiy tabiiy geografiya” O'qituvchi Toshkent 2005
3. P. G'ulomov H. Vahobov O'rta osiyo tabiiy geografiyasi. O'zbekiston tabiiy geografiyasi «O'qituvchi» - Toshkent — 2017
4. Ashurov J.S. “Cho'llardagi samum, kuy va sarob” Экономика и социум. 2024.